



THEORETICAL, METHODOLOGICAL, AND PHILOSOPHICAL ANALYSIS OF STUDYING YOUTH SPIRITUALITY

Mekhrinoy Rakhatova

Associate Professor

Tashkent University of Social Innovation

Uzbekistan, Tashkent

ABOUT ARTICLE

Key words: youth, spirituality, spiritual potential, methodology, theory, philosophical analysis, spiritual crisis, spiritual growth, process, trend.

Received: 10.05.25

Accepted: 12.05.25

Published: 14.05.25

Abstract: This article provides a comprehensive theoretical, methodological, and philosophical analysis of studying youth spirituality, based on various sources. The analysis employs scientific methods such as a holistic approach, systematization, generalization, and analogy to examine the theoretical and methodological aspects of researching youth spirituality.

YOSHLAR MA'NAVIYATINI O'RGANISHNING NAZARIY METODOLOGIK FALSAFIY TAHLILI

Mexrinoz Rakmatova

Dotsent

Toshkent ijtimoiy innovatsiya universiteti

O'zbekiston, Toshkent

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: yoshlar, ma'naviyat, ma'naviy salohiyat, metodologiya, nazariya, falsafiy tahlil, ma'naviy inqiroz, ma'naviy yuksalish, jarayon, tendensiya.

Annotatsiya: Mazkur maqolada yoshlar ma'naviyatini o'rganishning nazariy metodologik falsafiy tahlili turli manbalarga asoslangan holda to'liq konteksda yoritilgan. Shuningdek, yoshlar ma'naviyatini o'rganishning nazariy metodologik falsafiy tahlilini amalga oshirishda kompleks yondashuv, tizimlilik, umumlashtirish, analogiya kabi ilmiy bilish usullaridan foydalilanilgan.

ТЕОРЕТИКО-МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЙ ФИЛОСОФСКИЙ АНАЛИЗ ИЗУЧЕНИЯ ДУХОВНОСТИ МОЛОДЕЖИ

Мехриноз Рахматова

Доцент

Ташкентского университета социальных инноваций

Узбекистан, Ташкент

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: молодежь, духовность, духовный потенциал, методология, теория, философский анализ, духовный кризис, духовный подъем, процесс, тенденция.	Аннотация: В данной статье теоретико-методологический философский анализ изучения духовности молодежи представлен в полном контексте на основе различных источников. Также при проведении теоретико-методологического философского анализа изучения духовности молодежи применялись такие методы научного познания, как комплексный подход, системность, обобщение и аналогия.
---	---

Kirish. Bugun “Yangi O‘zbekiston – yangicha dunyoqarash”ni shakllantirish va mustahkamlash uchun har bir fuqarodan, ayniqsa, yosh avlod vakillaridan alohida mas’uliyat, yuksaklikka da’vat etuvchi ma’naviy salohiyat talab etilmoqda. Ushbu salohiyatni har bir yosh avlod qalbida mustahkamlash dolzarb ahamiyatga ega. Ma’naviyat va ma’rifatni rivojlantirish omili sifatida mamlakat ma’naviy salohiyatini yuksaltirish ustuvor vazifa qilib belgilanmoqda.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Yoshlar ma’naviy salohiyatini o‘rganishning nazariy-metodologik asoslariga oid manbalar T.Alimardonovning “Jamiyatda siyosat va axloq muvozanati muammolari”, R.Galeyevning “Duxovniy potensial kak obyekt issledovaniya i upravleniya”, A.Erkayevning “Ezgulik sari yo’naltirilgan iroda”, E.Yusupovning “Inson kamolotining ma’naviy asoslari”, I.Saifnazarovning “Ma’naviy barkamollik va siyosiy madaniyat”, M.Quronovning “Betakrorimsan, yagonasan, ona vatanim” asarlarida o‘z ifodasini topgan.

Tadqiqot metodologiyasi Mazkur maqolani tayyorlashda kompleks yondashuv, tizimlilik, umumlashtirish, analogiya kabi ilmiy bilish usullaridan foydalanilgan.

Tahlil va natijalar. Prezident Shavkat Mirziyoyev ma’naviyat xususida: “Sharq donishmandlari aytganidek, Eng katta boylik – bu aql-zakovat va ilm, eng katta meros – bu yaxshi tarbiya, eng katta qashshoqlik – bu bilimsizlikdir! Shu sababli hammamiz uchun zamonaviy bilimlarni o’zlashtirish, chinakam ma’rifat va yuksak madaniyat egasi bo‘lish uzlusiz hayotiy ehtiyojga aylanishi kerak”[1], deya ta’kidlaydi. Ma’naviyatning jamiyat va inson hayotidagi rolini aniqlashtirishda unga berilgan ta’riflarning mazmun va mohiyatini anglab yetish muhim o‘rin tutadi.

Mazmuni. “Ma’naviyat” atamasi arabcha “ma’ni” yoki “ma’no” so‘zлari mazmunidan kelib chiqqan bo‘lib, uning mazmunini ta’riflash borasida ko‘plab faylasuflarning talqinlarini uchratish mumkin. Jumladan, “g‘azal mulkining sultonı Alisher Navoiy o‘z asarlarida odamlarni ikkiga, ya’ni – suvrat ahli va ma’ni ahliga bo‘ladi. Yoki Mavlono Jaloliddin Rumiyning olti kitobdan iborat dunyoga mashhur asari aynan “Masnaviyi ma’naviy”, ya’ni “Ma’naviyat dostoni” deb nomlanadi”[2].

Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov “Ma’naviyat – insonni ruhan poklanish, qalban ulg‘ayishga chorlaydigan, odamning ichki dunyosi, irodasini baquvvat, iyomon-e’tiqodini butun qiladigan, vijdonini uyg‘otadigan beqiyos kuch, uning barcha qarashlarining mezonidir”[3], – deb ta’riflaydi. Uning nuqtai nazaricha, “xalq, millat o‘z milliy ma’naviyatini yillar, asrlar davomida yuksaltirib, boyitib boradi. Chunki ma’naviyat qotib qolgan aqidalar yig‘indisi emas, aksincha, doimiy harakatdagi uzluksiz jarayon bo‘lib, taraqqiyot davom etar ekan, uning shiddatli yurishi tufayli ma’naviy hayot oldiga qo‘yiladigan talablar ham muttasil paydo bo‘laveradi”[4]. Birinchi Prezidentimizning ushbu qarashlaridan ma’naviyat falsafiy tushunchasi dinamik ravishda doimo o‘zgaruvchi, rivojlanuvchi jarayon ekanligi yaqqol namoyon bo‘ladi.

Shuningdek, “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi”da ma’naviyatga shunday ta’rif berilgan: “Ma’naviyat – inson ruhiy va aqliy olamini ifodalovchi tushuncha. U kishilarning falsafiy, huquqiy, ilmiy, badiiy, axloqiy, diniy tasavvurlarini o‘z ichiga oladi”[5]. Ushbu ta’rifda ma’naviyat tushunchasini ko‘proq insonning ruhiy va aqliy olamiga bog‘lab qo‘yish ustunlik qiladi.

Falsafa qomusiy lug‘atida: “Ma’naviyat – insonlarning o‘zaro munosabatlari, ularning hayotiy tajribalari davomida shakllangan va rivojlangan qadriyatlar tizimi”[6] – deb, Ma’naviyat asosiy tushunchalar izohli lug‘atida: “Ma’naviyat – moddiy hayot bilan doimo yonma-yon yuradigan, inson, xalq va jamiyat hayotining ajralmas qismi bo‘lgan ijtimoiy hodisa[7]” – deb, ta’kidlangan. Mazkur ikki ta’rifda ham ma’naviyat falsafiy kategoriyasining ko‘proq amaliy jihatlariga e’tibor qaratilgan.

Faylasuf A.Erkayev ta’rifiga ko‘ra: “Ma’naviyat insoniylikka olib boradigan, insonni inson, millatni millat qiladigan ajoyib xislat va fazilatlarning yig‘indisidir”[8]. Ushbu ta’rifdan ayonlashadiki, ma’naviyat tom ma’noda inson hayoti, uning faoliyati va ijtimoiy sohada millatning, xalqning hayoti bilan bog‘liq botiniy qudratdir.

E.Yusupov ta’rificha, “Ma’naviyat – inson axloqi va odobi, bilimlari, iste’dodi, qobiliyati, amaliy malakalari, vijdoni, iyemoni, e’tiqodi, dunyoqarashi, mafkuraviy qarashlarining bir-biri bilan uzviy bog‘langan, jamiyat taraqqiyotiga ijobiy ta’sir etadigan mushtarak tizimdir”[9]. Shuningdek, olimning “ma’naviyatning mohiyati va amaliy ahamiyati, ayniqsa jamiyat

taraqqiyotining burilish davrlarida yaqqol ko‘zga tashlanadi. Davlatning kuchi va qudratini ma’naviy jihatdan barkamol bo‘lgan kishilarga belgilaydi. Ma’naviyatga e’tibor bermagan mamlakatda katta iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy bo‘ronlar sodir bo‘ladi”[10] fikrlarida ma’naviyatning jamiyat taraqqiyotida hal qiluvchi kuchga ega ekanligiga alohida urg‘u beriladi.

I.Saifnazarov esa “ma’naviyat – inson o‘zligida aks etgan barcha xayrli, ezgu orzu-tilishlar mujassami. Ma’naviyat – ezguliklar manbai. U jaholatning ziddidir. Chunki jaholat barcha yovuzliklar manbai”[11] deya ta’riflagan. Ushbu ta’rifda ko‘proq ma’naviyatning botiniy jihatiga urg‘u berilgan.

M.Quronov ma’naviyat to‘g‘risidagi o‘z mulohazalarini bayon qilar ekan, jumladan, shunday yozadi: “Biz ikki renessansni ko‘rgan, qurgan millatmiz. O‘sha paytlarda ham iqtisodiyot rejali emas, bozor iqtisodiyoti edi. Ma’naviyatimiz kuchli edi. Demak, biz kuchli iqtisodiyot bilan kuchli ma’naviyatni birlashtirib, ikki marta yuksalib ko‘rganmiz. “Yangi O‘zbekiston = Kuchli iqtisodiyot + Kuchli ma’naviyat” formulasi ikki qudratli kuchni birlashtiradi. Mana shu ikki kuch, qudrat bizni Uchinchi Renessansga olib chiqadi”[12]. Mazkur ta’rifdan ma’naviyat – mamlakat taraqqiyoti va tamaddunini ta’min etuvchi beqiyos qudrat ekanligi oydinlashadi.

Ma’naviyatning ana shu beqiyos qudratini nazarda tutar ekan, O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti Shavkat Mirziyoyev “agar jamiyat hayotining tanasi iqtisodiyot bo‘lsa, uning joni va ruhi ma’naviyatdir” deya alohida ta’kidlaydi. Mamlakatimiz rahbari Yangi O‘zbekiston taraqqiyotini barpo etishda kuchli iqtisodiyot bilan bir qatorda kuchli ma’naviyatga tayanish zaruriyatini ilgari surar ekan, strategik nuqtai nazardan ma’naviyat kategoriyasiga shunday ta’rif beradi: “Biz uchun ma’naviyat – insonlar o‘rtasidagi o‘zaro ishonch, hurmat va e’tibor, xalq va davlat kelajagini birgalikda qurish yo‘lidagi ezgu intilishlar, ibratlari fazilatlar majmuasidir.

Boshqacha aytganda, ma’naviyat – jamiyatdagi barcha siyosiy-ijtimoiy munosabatlarning mazmuni va sifatini belgilaydigan poydevordir”[13]. Ushbu ta’rifdan ham ma’naviyatning beqiyos darajadagi ham botiniy, ham zohiriyligini ko‘rish mumkin. Shu boisdan ham keyingi yillarda jahon miqyosida ma’naviyat masalasiga alohida e’tibor qaratila boshlandi.

Xususan, XXI asrning ikkinchi o‘n yilligi bo‘sag‘asidan boshlab dunyo olimlarining tadqiqot obyekti sifatida ma’naviyat masalasiga alohida e’tibor qaratayotganligini kuzatish mumkin. Jumladan, avstriyalik faylasuf Frankl Viktor ma’naviyatni “insonni ajratib turadigan, faqatgina uning o‘ziga xos jihat”[14] - deb ta’riflaydi.

Soha olimlarining mazkur talqinlaridan ma’naviyat keng qamrovli falsafiy kategoriya sifatida insonni ruhiy poklikka chorlovchi, nojo‘ya xatti-harakatlardan o‘zini tiyishga undovchi,

shaxsda yuksak axloqiy fazilatlarni kamol toptirishni o‘zida mujassam etgan tushuncha ekanligini anglash mumkin. Demak, ma’naviyat serqirra, mazmunli va insondagi nozik xilqatni qamrab olgan falsafiy tushuncha.

Yuqoridagi ta’riflarni inkor etmagan holda biz ma’naviyat kategoriyasiga quyidagicha ta’rifni berishga jazm qildik: ma’naviyat – borliq, tabiat, jamiyat kabi uzluksiz harakatdagi jarayon, u inson fikri, tafakkuri, his-tuyg‘ulari, milliy va umuminsoniy qadriyatlar, tarixiy va madaniy merosimizni mujassam etgan yuksak insoniy salohiyatdir.

Bizningcha, ma’naviyat – insonlarda yuqori darajada takomil topgan ezhgulik, vatanparvarlik, jonkuyarlik, insonparvarlik, oliyjanoblik kabi axloqiy fazilatlarning majmuidir.

Ma’naviyat insonning qalban uyg‘oqligi, ruhan pokligi, to‘g‘ri so‘zligi, sofdilligi, samimiyligi, or-nomusliligi, andishaliligi, ahloqan yetukliligi singari insoniy fazilatlar bilan o‘lchanadi. Bu axloqiy fazilatlar inson ma’naviy olamining muhim o‘lchovlaridir.

Yuqorida keltirilgan ta’riflarda ma’naviyatga asosan jamiyat hayotiga daxldor umumiyl tushuncha sifatida ta’rif beriladi. Bizningcha esa, ma’naviyat individual ko‘rinishda, turli darajada, ya’ni: quyi-o‘rta-yuqori darajalarda namoyon bo‘ladi.

Xulosa va takliflar. Har bir insonning nafaqat jismonan balki, ma’nan barkamol bo‘lishi yangi O‘zbekiston poydevorini mustahkamlashning asosidir. Demak, yuksak ma’naviyat – bu, har bir inson hayotining mohiyati, uning oddiylikdan murakkablikka qarab borishi, ya’ni yuksak ma’naviyatga tomon intilishini ifoda etadi. O‘zbekiston – yoshlar mamlakati. Respublika aholisining teng yarmini 18 yoshgacha, uchdan ikki qismini esa 30 yoshgacha bo‘lgan yosh avlod vakillari tashkil etadi. Shu maqsadda mamlakatimizda yoshlar ma’naviy salohiyatini yuksaltirish tizimini takomillashtirish ulug‘vor maqsadimiz hisoblanib, ma’naviy sohada olib borilayotgan islohotlarimizning asosiy negizini tashkil etadi. Ayniqsa, bu fan, madaniyat, sport, ta’lim tizimini jahoning ilg‘or mamlakatlari tajribalari asosida tubdan isloh etish, yanada takomillashtirish va modernizatsiyalash singari ulkan ishlarda namoyon bo‘lmoqda.

Foydalilanilgan adabiyotlar ro‘yxati (Literatura/References)

1. Mirziyoyev Sh.M. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisiga Murojaatnomasi. – Toshkent: Tasvir, 2020. –B.12-13.
2. Quronov M. Betakrorimsan, yagonasan, ona vatanim, O‘zbekistonim. – Toshkent: Ma’naviyat, 2015. –B.80.
3. Karimov I. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma’naviyat, 2008. –B.19.
4. Karimov I. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma’naviyat, 2008. – B.171.

5. O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. – Toshkent: Davlat ilmiy nashriyoti, 2003. №5. – B.540.
6. Falsafa: Qomusiy lug‘at. – Toshkent: Sharq, 2004. –B.225.
7. Ma’naviyat asosiy tushunchalar izohli lug‘ati. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi NMIU, 2009. –B.33.
8. Erkayev A. Ezgulik sari yo‘naltirilgan iroda // Tafakkur. 1997. №3. –B.14.
9. Yusupov E. Inson kamolotining ma’naviy asoslari. – Toshkent: Universitet, 1998. – B.34.
10. Yusupov E. Inson kamolotining ma’naviy asoslari. – Toshkent: Universitet, 1998. – B.4.
11. Saifnazarov I. Ma’naviy barkamollik va siyosiy madaniyat. – Toshkent: Sharq, 2001. – B.14.
12. Quronov M.Odamiylik mafkurasi // Yangi O‘zbekiston, 2021-yil 30-yanvar, № 21.
13. Mirziyoyev Sh. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2021. – B.267.
14. Франкл В. Человек в поисках смысла (Перевод Д. Леонтьева). – Пермь: Биг-Пресс, 2012. –C.35.
15. Sobirovich, T. B. (2023). Basic Criteria for Building the Third Renaissance in Uzbekistan. Asian Journal of Applied Science and Technology (AJAST), 7(1), 149-157.
16. Sobirovich, T. B. (2021). The implementation of human indicator reforms in Uzbekistan. Asian Journal of Multidimensional Research, 10(9), 197-202.